

IKKINCHI SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGIDAGI SHE'RLARNI
PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O`QITISH

Abdushukurova Muxlisa Foziljon-qizi

Guliston davlat pedagogika Instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15345243>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi, ya'ni dars davomida o'quvchilarni dars jarayoniga turli didaktik o'yinlar yordamida jalb qilishning bir necha usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ta'lif, boshlang'ich, fan, integratsiya, o'qitish, mexanizm, takomillashtirish.

**ОБУЧЕНИЕ СТИХОТВОРЕНИЯМ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ ВО ВТОРОМ КЛАССЕ И
ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

Аннотация. В данной статье представлена информация о повышении эффективности совершенствования интегрированных механизмов обучения системы кластерного подхода в начальном образовании.

Ключевые слова: образование, начальное, предмет, интеграция, обучение, механизм, оптимизация.

**TEACHING POEMS IN SECOND GRADE MOTHER LANGUAGE AND READING
LITERACY ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES**

Abstract. This article provides information on increasing the effectiveness of improving the integrated teaching mechanisms of the cluster approach system in primary education.

Key words: education, primary, science, integration, teaching, mechanism, improvement.

Yangi O'zbekiston rivojiga katta hissa qo'shayotgan va uning tub o'zagi hisoblangan ta'lif tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ayni damda boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yurtimizda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limda sifat samaradorligiga erishish va bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilar faoliyatiga tayanish dolzarb vazifalar sirasiga qo'shildi.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lifni yanada takomillashtirish davri kechmoqda. Ushbu jarayonda faqatgina boshlang'ich sinfda dars berib kelayotgan o'qituvchilargina emas, balki bo'lajak pedagog-o'qituvchilar ham juda katta, muhim rol o'ynaydi. Ularda ham kasbiy qiyofani to'la shakllantirish shart.

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanining o'rni juda muhim bo'lib, ayniqsa, she'rlarni o'qitish bolalarning nutq madaniyati, badiiy tafakkuri va estetik didini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonni yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqolada ikkinchi sinf o'quvchilariga she'rlarni pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning usullari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

She'rlarni o'qitishning ahamiyati:

She'rlar bolalarda quyidagi jihatlarni shakllantirishga yordam beradi:

Nutq boyligini oshirish – O'quvchilar yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi.

Badiiy tafakkurni rivojlantirish – She'riy obrazlar orqali bolalar tasavvur doirasini kengaytiradi. Eshitish va talaffuz qobiliyatini yaxshilash – She'rlar tovush va ritmga asoslanganligi sababli bolalar fonetik jihatdan aniqroq gapira boshlaydi.

Ijodiy fikrlashni shakllantirish – She'rlar orqali bolalar o'z fikrlarini badiiy ifodalashga o'rganadilar.

She'rlarni o'qitishda zamонавиу pedagogik texnologiyalar:

Ikkinchи sinf o'quvchilariga she'rlarni o'qitishda innovatsion metodlar

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida she'rlardan foydalanish bolalarning nafaqat o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning badiiy tafakkuri, ijodiy yondashuvi va nutq madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Zamонавиу та'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ayniqsa muhimdir. Quyida she'rlarni o'qitishda samarali bo'lgan zamонавиу metodlarning kengaytirilgan tavsifi keltiriladi.

1. Klaster metodi – bu grafik organayzer bo'lib, o'quvchilar ma'lum bir mavzu yoki tushuncha atrofida asosiy g'oyalarni guruhash qorali fikr yuritadilar. Bu usul, ayniqsa, yangi mavzuni tushuntirish yoki o'quvchilarning mayjud bilimlarini faollashtirishda samarali hisoblanadi. Qanday qo'llash mumkin? O'qituvchi o'quvchilarga mavzu bo'yicha bir asosiy tushunchani beradi (masalan, "Ona"). O'quvchilar ushbu tushunchaga bog'liq so'z va fikrlarni klaster shaklida yozadilar. She'r o'qib bo'lingandan so'ng, o'quvchilar avvalgi klasterga qo'shimchalar kiritadilar yoki yangi tushunchalarni belgilaydilar. Shu tariqa, bolalar mavzuni chuqurroq anglaydilar va she'rning asosiy g'oyasini o'zlashtiradilar. Natijasi: O'quvchilarning mavzu bo'yicha tahlil qilish, umumiyl tushunchalarni to'g'ri bog'lash va mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

2. Rolli o'yinlar usuli bolalarning she'riy obrazlarni jonlantirish orqali matn mazmunini chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi. Ular turli obrazlarga kirib, she'rni o'zlarining histuyg'ulari bilan ifoda etishadi. Qanday qo'llash mumkin? O'qituvchi dars mavzusiga mos she'rni tanlaydi. O'quvchilar she'rdagi obrazlarni (tabiat, inson, hayvon yoki boshqa badiiy qahramonlar) tanlab oladilar. She'rni ifodali o'qish bilan birga, harakatlar va ovoz orqali jonlantirib berishadi. O'quvchilar she'rdagi obrazlarning kayfiyatini his qilishga harakat qiladilar. Dars yakunida o'quvchilar o'z his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashib, muhokama qiladilar.

Bolalar badiiy tafakkurini shakllantiradi, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi va o'z fikrlarini ifodali bayon qilishni o'rganadilar.

3. INSERT metodi (Interaktiv belgilash) metodi matn ustida ishlashni chuqurlashtirish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarga matnni faol tahlil qilish imkoniyatini beradi. Qanday qo'llash mumkin? O'quvchilarga she'r beriladi va ulardan quyidagi belgililar yordamida o'qish so'raladi:

V – oldin bilgan ma'lumotlari.

+ – yangi va qiziqarli ma'lumotlar.

- – noto'g'ri yoki kutilmagan ma'lumotlar.

? – tushunarsiz yoki qo'shimcha izoh talab qiluvchi so'z va iboralar.

O'quvchilar matnni o'qish davomida ushbu belgilarni qo'llashadi. O'qib bo'lingandan so'ng, belgilangan qism bo'yicha muhokama olib boriladi.

O‘quvchilar o‘qish jarayonida faollashadi, tushunmagan so‘zlar ustida ishlaydi va matnni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

4. Aqliy hujum usuli o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirish va ularning mavzuga oid bilimlarini faollashtirishga yordam beradi. Qanday qo‘llash mumkin? O‘qituvchi she’r mavzusiga oid umumiyl savol beradi. Masalan, “Sizningcha, Vatan nima?” O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bildiradilar. Barcha javoblar yozib boriladi va umumlashtiriladi. She’r o‘qib bo‘lingandan so‘ng, dastlabki fikrlar bilan taqqoslanadi. O‘quvchilar mustaqil fikrlash, o‘z nuqtai nazarini ifodalash va muhokama yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

5. "Baliq skeleti" metodi ushbu usul yordamida she’r mazmuni tahlil qilinib, sabab va natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tushuntiriladi. Qanday qo‘llash mumkin? O‘qituvchi taxtaga "baliq skeleti" chizadi. "Bosh qismiga" she’rning asosiy g‘oyasi yoziladi. "Suyaklar" qismiga esa she’rda keltirilgan sabab va natijalar joylashtiriladi. O‘quvchilar she’r mazmuniga ko‘ra fikrlarini yozib chiqadilar. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatni rivojlanadi, ular she’rni chuqurroq tahlil qilishga o‘rganadilar.

6. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish bu o‘quvchilarga she’rni nafaqat o‘qish, balki audio va video shakllarida tinglash ham ta’lim samaradorligini oshiradi. Qanday qo‘llash mumkin? She’rni professional aktyorlar yoki o‘qituvchi ovozi bilan audio formatda tinglatish.

Multfilmlar yoki teatr sahnalari orqali she’rdagi obrazlarni jondantirish. O‘quvchilarning o‘z she’rlarini ovoz chiqarib o‘qishlarini yozib olish va ularni qayta tinglash. Bolalar she’rlardagi ritm va ifodalilikni yaxshiroq tushunadilar, ularning eshitish va talaffuz qobiliyatni rivojlanadi.

She’rlarni pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy metodlar orqali dars jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etilishi mumkin. Bu esa bolalarning she’riy matnlarni oson o‘zlashtirishiga, ularni hayotiy tushunchalar bilan bog‘lashiga yordam beradi. Shu sababli, ikkinchi sinfda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 24-aprelda PF-5712-son Farmoni (Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y).
3. Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, “Nosir”, 2009
4. G‘ulomova, X., & Bakiyeva, H. (2020). O‘QISH DARSLARIDA SHE’RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 582-589.